

## SHAHRISABZ MUZEYI KOLLEKSIYALARIDA EPIGRAFIK NAQSHLAR

Karimova Barno Abduqodirovna

*Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasi rassom restavratori*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada amaliy san'at turning sangtaroshlik yo'nalishidagi asarlarning o'rta asrlarga xos turi haqida so'z yuritilib, unda Shahrisabz Davlat muzey qo'riqxonasining fond matereallari tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Muzey, amaliy san'at, sangtaroshlik, islamiy naqsh, epigrafika.*

**Abstract:** *This article discusses a type of works in the stone-carving branch of applied art characteristic of the Middle Ages, and analyzes the фонд (collection) materials of the Shahrisabz State Museum-Reserve.*

**Keywords:** *Museum, applied art, stone carving, islami ornament, epigraphy.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается средневековый тип произведений в направлении камнерезного искусства как вида прикладного искусства, а также проводится анализ фондовых материалов Шахрисабзского государственного музей-заповедника.*

**Ключевые слова:** *музей, прикладное искусство, камнерезное искусство, исламийский орнамент, эпиграфика.*

Muzeylar bu moddiy boyliklar saqlanadigan ulkan g'aznaga o'xshaydi. U yerda turli davrlarga va turl xillarga ajratilgan ashyolar moziy haqida sirlashadi. Mamlakatimiz muzeylarida ham bu kabi sirli manbalar talaygina. Mazkur man'naviy hazinaning etirofi o'laroq Malakatimiz prezidenti muzeylar sohasida tub burulishlar hosil qilayotgan qaror va farmonlar qabul qilayotgani hech kimga sir emas. Bunga yaqqol misol Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi bo'ldi.

Islom davri san'ati rivojlanibdiki, san'atda arab xattotligi va islamiy o'simliksimon tasvirlar badiiy naqsh vazifasini o'tab kelmoqda. Mana shunday epigrafik manbalardan biri Shahrisabz muzeyida saqlanayotgan sangtaroshlik namunalari uchraydi. Tosh o'ymakorligi xalq amaliy bezak san'atining noyob turlaridan biri. Bu san'atni toshtaroshlik va sangtaroshlik deb ham yuritiladi. Tosh o'ymakorligi toshni o'yib, yo'nib, tirnab naqsh yoki biror tasvir ishlash kasbidir. Toshni o'yib ishlashning chiziqli o'yma, zanjira o'yma, yassi o'yma, chuqur o'yma, panjarasimon o'yma va hajmli o'yma turlari bor. Tosh o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar o'rni, maqsadi hamda vazifasiga qarab yumshoq, o'rtacha qattqlikdagi va qattiq toshlar ishlatiladi [1, 67].

Yumshoq toshlarga gipstosh, ohaktosh, o'rtacha qattqlikdagi toshlarga oniks, porfir, ohakli marmar, marmar va qattiq toshlarga lazurit, amazon, agat, malaxit, jadent, nefrit, yashma va boshqalar kiradi. Bu toshlardan qozon, ko'za, lagan, piyola, haykalcha va haykallar tayyorlanadi [2, 25].

Asosan o'rta asrlarga tog'rirog'i temuriylar va undan keying davrlarga oid katta sangtaroshlik kolleksiyasiga ega bo'lgan muzey bugungi kunda Chubin madrasasi

ekspozitsiyasida eksponatlarni xalqimizga namoyish qilib kelmoqda. Ahamiyatli jihati shundaki mazkur epigrafik tasvirlar tushurilgan marmar plitalar Shahrisabz va uning yon atrofidan to'plangan kolleksiyalar bo'lib, uni bemalol sangtaroshlikning Shahrisabz maktabiga xos ashyolar deyish mumkin.

Islimiy o'simliksiyon naqshlar fonida arab hattotligi namunalari mazkur ashyolar bezagi sifatida foydalanilgan. Unda asosan Muqaddas Qur'on oyatlari, payg'ambarga salovatlar, Alloh taoloning sifatleri, hikmatli iboralar kabilar yoritilishiga harakat qilingan. Asosan diniy urf odatlarga ko'ra inson qabrini bezastishda foydalanilgan bu ashyolar nafaqat dingo oid ta'limotlarni eslatish, balkim estetik zavq hissini uyg'otishga ham alohida e'tibor qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Semantik jihatdan qaraganda tasvirlangan har bir naqsh yoki belgi albatta qaysidir g'oyaning akslanishi deb ayta olamiz. Masalan ko'pgina an'anaviy bezaklarda ko'zda chirmovuq, yoki atirgul kabi o'simliklarning tasviri qo'llaniladi. Bu tasvirni ayrim olimlar hayot davomiyligi yoki abadiy hayot haqidagi tushunchalar deya ifodalashadi. Mazkur tasvirlardan Shahrisabz sangtaroshligida ham keng o'rinda foydalanishgan bo'lib, uni toshda o'yish nihoyatda murakkab texnikani talab qiladi. Ayniqsa o'rta asrlarda bu jarayon ancha murakkabliklarni keltirib chiqargan bo'lib, bu hozirgidek texnologiyalarning shakllanmaganligi bilan bog'liq. Demak hunarmandlarning mohirligi va ulkan maktab an'analari asosida ta'lim olganligini ularning yaratgan san'at asarlari bilan o'lchash lozim bo'ladi.

Mazkur muzey fonididagi kirim raqami 664 bo'lgan sangtaroshlik namunasi 1.21x20 sm atrofidagi o'lchamga ega bo'lib o'rtasidan singan va o'rta qismi yo'qolib, ikki yon qismlari saqlanib qolingan (qarang 1-rasm). Unda epigrafik ko'rinishda Allohning 99 sifati (ismi) yozilgan. Ammo bizgacha faqat 46 ta epigrafik nom saqlangan. Islimiy naqshlar nihoyatda nafislik bilan o'yilib, asosan markaziy kompozitsiyadan o'rin egallagan. To'rt tarafida ham islmiy naqshlar badiiy bezak vazifasida qo'llanilgan va tosh asosi hududga xos bo'lmagan oq marmardan ishlangan. Umuman olganda mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyalarini tuzishda avval ko'plab xomaki ishlar, eskizlar ishlanadi va ulardan eng chiroyli namunalar tanlab olinadi. Naqsh kompozitsiyalarini tuzishda elementlar o'rnini almashtirish, qo'shimcha elementlar kiritish orqali uning mazmunini yanada boyitish kabilar ham muhim ahamiyatga egadir. Naqsh mazmunini ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim. Bular kompozitsiyaning bir butunligi, elementlar, shakllar, ranglarning takrorlanishi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, kompozitsiyaning tarkibiy qismi bo'lgan rang tuslarining ma'lum bir koloritga bo'ysundirishdan iborat [3, 40]. Ishlatilgan material hamda badiiylik xususiyatini hisobga olsak mazkur qabrtosh jamiyatda yuqori martabada va ilmli insonlar qabri ustiga hayotdagi rutbasiga mos bo'lishi uchun qo'yilgan. Ammo aynan kimga tegishli ekanligi haqidagi ma'lumotlar uchramaydi.

Shuningdek ulkan dahma qopqog'iga o'xshash qabr tosh ham mavjud bo'lib u 1996 yilda muzey kolleksiyasi sifatida KP 670 raqam ostida ro'yhatga olingan (qarang 2-rasm). Mazkur toshning tarixiga kelsak sobiq mustabid tuzum davrida, mazkur tosh ilgari poliklinika vazifasini o'tagan Chubin madrasasi binosning kirish qismi zinasi sifatida foydalanib kelingan. Mustaqillikdan so'ng mazkur obyekt muzeylashtirilgach esa bu aslida 1.90x27.5x10 santimetga teng qabrtosh ekanligi aniqlanib, muzeyda sangtaraoshlik namunasi sifatida namoyish qilib

kelinmoqda. Islom dini anʼanalariga koʻra islimiy va epigrafik naqshlar mazkur ashyoning chetlarida chorchup shaklida berilgan va hoshiyalangan. Ayrim xulosalarga koʻra nomi hali fanga noʻmalum boʻlgan ilmi maʼrifatda ulugʻ inson dahmasiga ishlatilgan qopqoq qismi ham boʻlishi mumkin. Zero oʻrta asrlarda “Qubbatul ilm val adab” nomini olgan Shahrisabzda ziyoli insonlar talaygina boʻlishgan.

Shuningdek Dorus Siyodat majmuasidan topilgan bir qancha sangtaroshlik namunalari (kirim raqami 669, 2010, 2008) ham muzey fondida mavjud boʻlib, ular asosan islimiy va epigrafik yozuvlarning ayrim qismlarini oʻz ichiga oladi (qarang 3-5 rasm) . Ular oq marmarda ishlangan hamda toshni oʻyish orqali bezak berilgan. Epigrafik yozuvlarda turli kalimlar, oyatlar, hadislardan parchalar keltirilgan boʻlib, hozirgi vaqtda faqat ayrim qismlarigina siniq holda saqlanib qolgan.

Xulosa qilib aytganda Shahrisabzda oʻrta asrlar, temuriylar va undan keyingi davrlarda hunarmandchilik, xususan sangtaroshlik sanʼat darajasida rivoj topgan. Jamiyatda yuksak hurmatga sazovor insonlar olamdan oʻtgach, uning qabri ustiga yuksak darajaga erishganligini koʻrsatuvchi yodgorliklar oʻrnatilgan.

**Ilova**  
**2-sonli rasm**



**3-5 sonli rasm**





#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abduhamidov S.M. Tasviriy va amaliy san'at (Tasviriy san'at o'qitish metodikasi). - Toshkent. "Malik Print Co", 2021. 126 b.
2. Muratov X.X., Jabborov R. R. Amaliy va badiiy bezak san'ati. - Toshkent "Ijod Print", 2020. 162 b.
3. Musinova A.S. Naqqoshlik. - Buxoro. "Buxoro", 2022. 98 b.
4. A. Hakimov, Z. Nasirova, B. Nodir. O'zbek xalq amaliy san'ati. - Toshkent. "Lesson press", 2019. 132 b.